

IJTIMOIY TARMOQLARDA TARQATILGAN XABARGA MUNOSABAT

Joriy yil 15 sentabr kuni ijtimoiy tarmoqlar orqali “Bu yerda radar o’rnatilmasa bo’lmaydi” sarlavhasi ostida tanqidiy murojaat e’lon qilindi.

Murojaatda: – **“Farg’ona viloyati Qo’shtepa tumani Yangiariq MFY Yangi avlod ko’chasidan murojaat qilyapmiz. “Yangiariq azizlari” qabristoni yo’lida mashinalar juda tez harakatlanishi oqibatida avariylar ko’p ro’y bermoqda. Masalan, 2 nafar yosh bola va bir nafar katta odam avtohalokat tufayli vafot etdi. Bolalar yurishi uchun trotuar bor, lekin mahalla raisi piyodalar yo’lagida do’kon qurishga ruxsat bervorgan. Ushbu hududga radar o’rnatishlari va piyodalar yo’lagini ochib qo’yishlarini so’raymiz. Begunoh insonlar jabr ko’rmasin”** – deya shikoyat qilingan.

Ushbu tanqidiy murojaatdan so’ng Qo’shtepa TYFUK tomonidan 4K 858 Marg’ilon O’roqbolg’a A-373 avtomobil yo’lining 7-9 km oralig’ida 2 dona 5.43 “Radar” yo’l belgisi o’rnatildi. Shuningdek, 2 joyda piyodalar o’tish joyi belgilandi. Avtomobil yo’lining 8-9 km.lari oralig’iga 500 metr masofada piyodalar yo’lakchasi qurish ishlari rejalashtirilgan bo’lib, xozirda 30 metr uzunlikda piyodalar yo’lagi qurish ishlari boshlanganligini ma’lum qilamiz.

Qo’shtepa tumani hokimligi

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

Facebook,

2021-09-17 18:28:18